



BOLALAR XALQ O'YINLARI NOMLARINI TEMATIK TASNIFLASH MASALASI

Gulira'no Ibrohimova,
KU mustaqil tadqiqotchisi.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18iB.1792>

MAQOLA HAQIDA/O' STAT'YE

Qabul qilindi: 18-may 2026-yil

Tasdiqlandi: 21-may 2026-yil

Jurnal soni: 18-B

Maqola raqami: 54

KALIT SO'ZLAR/КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

bolalar xalq o'yinlari, tematik tasnif, lingvomadaniyatshunoslik, milliy-madaniy, folklor, madaniy qadriyatlar, konsept, model, funksiya, kognitiv, o'yin nomlari

ANNOTATSIYA/АННОТАЦИЯ

Bolalar xalq o'yinlari xalqning tarixiy-madaniy xotirasi, milliy dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari, qadriyatlar va an'analarini saqlovchi folklor namunalari deb hisoblanadi. Mazkur maqolada o'zbek va ingliz xalqlariga xos bolalar xalq o'yinlarining tematik tasnifi qiyosiy-lingvomadaniy nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Unda bolalar o'yinlarining mazmun va vazifasiga ko'ra asosiy tematik guruhlar aniqlanib, ularda aks etgan milliy va umuminsoniy qadriyatlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari bolalar xalq o'yinlari til va madaniyat o'rtasidagi munosabatni yorituvchi muhim lingvomadaniy manba ekanligini asoslaydi. Maqolada o'zbek va ingliz xalq o'yinlaridagi umumiy va milliy xususiyatlarni aniqlash maqsadida qiyosiy-chog'ishtirma tahlil usulidan foydalanildi. O'yinlardagi milliy-madaniy komponentlarning namoyon bo'lish darajasi ular yaratilgan ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi ta'kidlanadi. O'yin nomlaridagi leksik birliklar va obrazlar xalqning madaniy tajribasini ifodalaydi. O'yinlarda faollashgan konseptlar bo'yicha kognitiv modellar tavsiya etildi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 18 May 2026

Approved: 21 May 2026

Volume: 18-B

Paper number: 54

KEYWORDS

children's folk games, thematic classification, linguistic and cultural studies, national-cultural, folklore, cultural values, concept, model, function, cognitive, game names

ANNOTATION

Children's folk games are considered examples of folklore that preserve the historical and cultural memory of the people, national worldview, social relations, values and traditions. This article studies the thematic classification of children's folk games characteristic of the Uzbek and English peoples from a comparative-linguistic-cultural point of view. It identifies the main thematic groups of children's games according to their content and function, and analyzes the national and universal values reflected in them. The results of the study substantiate that children's folk games are an important linguocultural source that illuminates the relationship between language and culture. The article uses the method of comparative analysis to identify common and national features in Uzbek and English folk games. It is emphasized that the level of manifestation of national-cultural components in games is related to the social environment in which they were created. Lexical units and images in the names of games represent the cultural experience of the people. Cognitive models are proposed for the concepts activated in games.

Kirish

Bolalar xalq o'yinlarining tasniflash masalasi aksariyat olim va tadqiqotchilarning e'tiborini tortgan. Bolalar xalq o'yinlarining tasnifiga turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ular o'yinlar mohiyati, jarayoni, mazmunini namoyon etgan. Mazkur maqolada o'zbek va ingliz bolalar xalq o'yinlari nomlarini tasniflash jarayonida 15 guruh ajratildi. Mazkur guruhlarda jamlangan o'yinlar mohiyatiga e'tibor qaratilib, kognitiv modellar tsviya etildi. Shu bilan birga guruhlarda taqsimlangan o'yinlarning nisbati, guruhlardagi lakunar holatlari o'rganildi. Bolalar xalq o'yinlarining tasniflashda o'zbek va ingliz xalqlarining 600 o'yinlari olindi. Bolalar xalq o'yinlarining tasniflash jarayonida faqat Buyuk Britaniya mamlakatida qayd etilgan o'yinlar ro'yxatga qo'shildi. Shu bilan birga ta'kidlash joizki, ayrim o'yinlar boshqa xalqlardan Buyuk Britaniyaga kirib kelib, ushbu mamlakatda saqlanib qolgan. Omma ichida keng tarqalganligi tufayli biz mazkur o'yinlarni ham ingliz o'yinlari qatoriga kiritishga qaror qildik.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Bolalar xalq o'yinlarini tasniflash masalasi jahon, rus va o'zbek tilshunoslari tomonidan atroflicha ko'rilgan. Xususan, rus olimi G.R.Shagalova bolalar o'yinlarini an'anaviy va harakat o'yinlariga ajratadi. An'anaviy o'yinlar guruhiga etnografik fenomen sifatida e'tirof etilgan xalq o'yinlari kiritiladi. Harakat o'yinlari guruhiga sport, raqobatdoshlik o'yinlari kiritiladi. Biroq, bunday guruhlanishda an'anaviy o'yinlar harakat o'yinlari bilan almashib ham ketishi mumkin. Shuning uchun G.R.Shagalova o'yinlar tasnifini to'liq ko'rsatib berish murakkabligini ifodalaydi. Shu bois o'yinlarning yagona tipologiya bo'yicha tasnifi hali beri taqdim etilmagan degan izohni beradi[4].

M.A.Klyucheva ham G.R.Shagalovanning fikrini ma'qullab, o'yinlarni tasnif masalasi hali beri aniq ifoda topmaganligini qayd etadi. Mazkur olimi ilmiy izlanishlarida o'yinlarning quyidagicha tasnifini beradi: 1. O'yinlarning tasvirlashga ko'ra guruhi; 2. Yosh omiliga ko'ra o'yinlar guruhi; 3. O'yinlarning o'ynash joyi va usuliga ko'ra guruhi; 4. O'yinlar harakatiga ko'ra guruhi; 5. O'yinlar mavzusi va ramzlariga ko'ra guruhi[2].

Shuningdek, M.A.Klyucheva xalq o'yinlarini ualning struktur belgilariga ko'ra tasniflashni tavsiya etadi:

1. Kinemalarga (harakat) ko'ra guruhi;
2. O'yin davomida ishlatiladigan predmetga (tayoq, koptok, oshiq, suyak) asosan guruhlanish;
3. O'yinchilarning rollariga ko'ra guruhlanish;
4. O'yin tuzilishiga (ashula, qo'shiq, she'r, so'zli matn, sanalma, chaqirma) ko'ra guruhlanish [2].

Rus olimlari tomonidan taklif etilgan tasniflardan eng anig'i V.N.Vsevolodskiy-Gerngrossning tasnifi hisoblanadi: 1. Dramatik o'yinlar; 2. Ornamentli o'yinlar; 3. Sport o'yinlari.

Mazkur olim dramatik o'yinlarda badiiy obraz va harakat yoki dialog va harakat mavjudligini ta'kidlagan. Ornamentli o'yinlarda xoreografik elementlar, ya'ni ashula va qo'shiq qilish uchun o'yinlar. Rollar taqsimotiga musobaqalardan iborat bo'lib, so'zlar qismi deyarli ishtirok etmasligini qayd etgan [1].

O'yin nomlarini tasniflash bilan birga, o'yin jarayonida uchraydigan hodisa, holat, joy, predmet, insonlarga e'tiborini ham qaratgan. Bundan kelib chiqib, o'yinlar jarayonidagi tematik mavzularni qamrab olgan: olov, taom, hayvonlar, iblislar, qavm-qarindosh ifodalovchi o'yin terminlari, cherkov va din ifodalovchi terminlar, qirol va uning atrof-muhitini ifodalovchi terminlar, joy nomlarini ifodalovchi terminlar (shahar, tog', tomorqa) [2].

M.N.Melnikov bolalar o'yinlarini tasniflar ekan, u folkloriga asosan ikki guruhni ajratadi: o'yinlarda nutq ishtiroki, nutqsiz o'yinlar. Harakatli o'yinlarni ham mazkur olim bir necha guruhga ajratadi: tezlik reaksiyasini rivojlantiruvchi, ko'zni o'tkir qilish uchun o'yinlar. Rollar taqsimotiga ko'ra o'yinlar yana ikkita guruhga ajratiladi. Xotira, nutqni rivojlantirishga moslangan o'yinlar alohida guruh tashkillaydi[3]. Ko'rinadiki, mazkur taqsimlanishda o'yinlar funksiyasi e'tiborga olingan.

O'zbek tilshunosligida ham bolalar xalq o'yinlarining tasnifiga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, Yo'ldoshev[11], N.O.Safarova[9], D.Temirova[10] va M.Matmusayeva[7]lar o'zbek bolalar o'yinlarining onomastik tadqiqida tasniflash masalasiga e'tibor qaratgan bo'lsa, G.Xusanova[6], A.Mengboyev[8] va F.Eshkobilova[5]lar o'zbek va ingliz bolalar xalq o'yinlarining qiyosiy-chog'ishtirma aspektida tasnifini olib borgan. Mazkur o'zbek olimlarning tasnifida o'yinlar funksiyasi, lisoniy xususiyatlari e'tiborga olingan.

Mazkur maqolada o'zbek va ingliz bolalar xalq o'yinlari nomlarida aks etgan mavzularga ko'ra guruhlar ajratildi. Ikki tilda bolalar xalq o'yinlarini tasniflash jarayonida qiyosiy-chog'ishtirma hamda tasniflash metodlaridan foydalanildi.

Natijalar

1. O'zbek va ingliz bolalar xalq o'yinlarining tasniflashda 15ta guruh ajratildi: "Hayvon va qush": *Cat and Mouse; Fox and Geese; Duck, Duck, Goose; What's the Time, Mr Wolf?; Sardines; British Bulldog; Eagle and chickens; Hen and Chickens; Bo'ri keldi; Mushuk va sichqon; Tulki va g'ozlar; Chumchuq; Qaldirg'och uyasi; O'rdaklar; Bo'rilar va echkilar; Quyionlar; Tovuq va jo'jalar; Qarg'a-qarg'a; Quyionim-quyionim; Ot-otakam; Oqsoq turna; Asalari; Quyion izlash; Laylak keldi; Bo'ri va qo'ylar; Bo'ri va echki; Tuva va karvon/Tuva va qarog'chilar; It va qo'ylar; Ona tovuq; Tovuq va jo'jalar.*

"O'simlik" mavzusi ostida birlashgan o'yinlar: *Here We Go Round the Mulberry Bush; Oranges and Lemons; Nuts in May; Hot potato; Green Grass; Lavender's Blue; Ring around the rosie; Oq terakmi ko'k terak; Olmacha do'm-do'm; Shaftoli shakar; Qovun palak; Tarvuz-tarvuz; Xurmacha bog'i; Boychechak; Oltin qovoq; Lola terish.*

"Tabiat va fasllar" mavzusi ostida birlashgan o'yinlar: *The Wind blows high; The North wind doth blow; Rain, rain, go away; It is raining, it is pouring; Yomg'ir yog'aloq/Yomg'ir yog'di; Quyosh chiqdi; Osmondagi oy; Kun va tun; Quyosh va yomg'ir; Oy va yulduzlar; Oyiim momom; Yulduz sanash; Bulut va quyosh; Shamol; Shamol esdi; Baxor keldi; Kuz keldi; Qish keldi.*

"Oila, oilaviy munosabatlar va maishiy hayot" mavzusi ostida jamlangan o'yinlar: *Family game; Mother, may I; Grandma's footsteps; The Farmer and his family; Ona-bola, kelin-kuyov; Oila; Ota-ona; Buvi va nevara; Mehmon-mehmon; Mehmon kutish; Mehmonmisiz?; To'y-to'y; Kelin-kelin/Kelinchak; Kelin salom; Quda-anda; Dasturxon; Choyxona; Choy-choy; Uy-joy; Xola-xola/Xolakam; Qiz bering.*

"Mehnat, kasb va ijtimoiy munosabatlar" guruhida: *Farmer in the Den; Farmer, farmer; Farmer and his pigs; Postman's knock; The Doctor says; The Policeman; The Baker's shop; The Milkman; The Shopkeeper; The Schoolmaster; The Soldier game; The Sailor game; The Railway game; The train game; The Builders; The Fisherman; The Blacksmith; The Gardener; The Shepherd; The Queen's Servants; Hammompish; Cho'pon va shoqol; Podachi; Sartarosh; Uzuq soldi; Qo'riqchi; Gang; Jambil; Somon sepd; Bobo dehqon; Do'konchi; Doktor-doktor/Shifokor-shifokor; Bozor-bozor; Quyionimni sotaman; Cho'pon-cho'pon; Dehqon-dehqon; Bog'bon; Bog'bon va gullar; Oshpaz-oshpaz; Nonvoy-nonvoy; Savdogar-savdogar; Xaridor va sotuvchi; Usta-usta; Duradgor; Quruvchi; Muallim-o'quvchi; Tikuvchi/Chevar; Qo'g'irchoqqa kiyim tikish.*

"Raqam" ostida jamlangan o'yinlar: *Four Square; Qirg' qadam; Sanama; To'rt burchak.*

"Harakat" mavzusi ostida birlashgan o'yinlar: *Hide and Seek; Hopscotch; Leapfrog; Hunt the Thimble; Treasure Hunt; Scavenger Hunt; Steal the Bacon; Kick the Can; Find the key; Find the treasure; Hide the object; Hunt the ring; Find the bell; Where is the bone?; Where is the leader?; Tiggy; Stuck in the mud; Red Rover; Chase me; Chain tag; Freeze tag; Shadow tag; Tunnel tag; Bekinmachoq; Quvlashmachoq; Muzlatamiz; Chalg'itma; Almash qadamlar; Ko'zboylog'ich; Sakrasakra; Sig'anchiq yoki toyinishma; Jonkuyar (Lopta); Quloqcho'zma; Besh qadam; Chunka shuvoq; Kim tek; Chori chambar; Yog'och oyog; Durra solish; Kim oladi-yo; Doira bo'lib quvlash; Do'ppi yashirma; Halqa otish; Arqonda sakrash; Qoch-qoch; Tez yugur; Qocharmon-qochar; Daraxtga yetib ol; Aylanma quvlash; Arqon sakrash; Arqon ustida sakrash; Ipdan sakrash; Chamarbak aylantirish; Belbog' tortish.*

"Makon va sayohat" mavzusidagi o'yinlar: *London bridge is falling down; The big ship sails; Down at the station; Going to London; The train game; Around the world; Journey to the moon; Going on a bear hunt; The ship is sailing; Over the hills and far away; The north wind; The bridge game; Across the sea; The railway train; The travelling game; Going to the market.*

"Rang" mavzusidagi o'yinlar: *Red Light, Green Light; Oq teragu, ko'k terak.*

"Afsonaviy mavjudotlar" mavzusi ostida birlashgan o'yinlar: *Elder scroll, Dungeons and Dragons, Catch the Dragon's tail; Ghost in the graveyard; The Witch game; Witches and Wizards; Monster tag; Dragon tag; Knights and dragons; The Giant came; The Ogre came, Escape the monster.*

"Tovush" mavzusidagi o'yinlar: *Kho-kho; Jik-jik; Puqmi puq; Dukduk; Shax-shax; Guldur gup; Aji-aji; Vizvizak; Churr; Churr kes; Taka lov-lov; Zuv-zuv.*

"Predmet" mavzusi ostida jamlangan o'yinlar: *Musical Chairs; Musical Statues; Marbles; Jacks; Skipping Rope; Cat's Cradle; Ball Bounce; Four Square; Kick the Can; Button, Button, Who's Got the Button?; Horseshoes, Conkers; Kite; Wall ball; Dodgeball; Stickball;*

Stoolball; Drop the handkerchief; Poison ball; Blob Tag; Freeze Tag; Shadow Tag; Ball Tag; Chain Tag; Elbow tag; Jacks; Double Dutch; Yo-yo; Hopscotch; Ball game; Four square; Rounders; Five stones; Knucklebones; Cup-and-ball; Hoop and stick; Ball in a cup; Lanka; Oshiq; Tanga; To'p tosh; Darvoza-darvoza; Elak-Elak; Charxi palak; Chillak; Varrak; Innana; Oq suyak; Arg'imchoq; Yashirin narsa; Sirli buyum; Besh tosh; Chillik; Chillak; Yarg'oq.

"Jang, kurash, raqobat va harbiy bellashuv" mavzusi ostida jamlangan o'yinlar: *Capture the Flag; Tug of War; Battleground; Age of Empires; Assassin's Creed; Qo'rg'on olish; Ot ustida kurash; Kim kuchli; Kim g'olib; Xo'roz urishtirish; Chillak, Kurash o'yini, Arqon tortish; Temur askarlari; Loy jangi; Bahodirlar o'yini; Otish-otish; O'y o'ylash; Polvonbozlik; Milliy kurash; Yelkada kurash; Bel olish kurashi; Qal'a-qa'la; Qal'ani egallash; Qo'riqchi va o'g'rilar; Qo'riqchi; Sarboz-sarboz; Askarlar; Jang-jang; Hujum; Himoya, Bayroqni egalla; Bayroq uchun kurash; Chegarachi; Qal'a himoyasi.*

"Qirollik va hokimiyat" mavzusi ostida birlashgan o'yinlar: *Queenie, Queenie; I'm the King of the Castle; The Queen says; The King says; The grand old duke of York; King and Queen; The prince and princess; The royal court; The king's servants; The crown game; The castle game; The royal guard; The palace game; The king's treasure; Capture the castle; King of the hill; Castle tag; The royal procession; Podsho-o'g'ri, Podsho-vazir.*

"Bayram, marosim va an'anaviy madaniyat" mavzusi ostida birlashgan o'yinlar: *Maypole dancing; Apple bobbing; Christmas crackers game; Father Christmas game; Easter egg hunt; Easter egg rolling; Halloween hide and seek; Halloween tag; Bonfire night games; Valentine's post; Morris dancing; Country dance; Barn dance; May queen; Harvest games; Christmas charades; Easter treasure hunt; Navruz o'yinlari.*

Muhokama

Hayvon nomlari aks etgan bolalar xalq o'yinlari o'zbek va ingliz tillarida yirik guruhni tashkillab, olamning lisoniy manzarasini bir muhim parchasi sifatida namoyon etiladi. Hayvonlar nomlari aks etgan o'yinlar hayvonlar haqida milliy tasavvur, ularning ramziy ma'nolarini hamda muomala modellarini ko'rsatib beradi. Hayvonlar nomlari aks etgan o'yinlarni kognitiv jihatdan tahlil jarayonida quyidagi modelni namoyish etish mumkin: "hujum – qochish": *Bo'rilar va echkilar; Fox and Geese; Tulki va G'ozlar; Cat and Mouse; Mushuk va Sichqon; Burgut va jo'jalar; Sakrabodom chumchuqlar; "yetakchi – guruh": Hen and chicken; Tovuq va jo'jalar; "qo'riqlash – hujum": Fox and hounds; Bo'ri keldi; Bo'ri va echkilar; It va qo'ylar; Asalari; "sinov – g'oliblik": Duck on a rock.* Mazkur o'yinlar jarayonida bolalar hayvon va qushlar harakatlariga taqlid qilib, ularning hayot tarzini bevosita o'yinlar orqali o'rganadilar.

Bundan tashqari "hayvon va qushlar" tematik guruhidagi o'yinlar quyidagi funksiyalarni ham bajarishiga asoslangan: diqqatni jamlash, o'z-o'zini nazorat qilish. Masalan, *Sleeping lions* ingliz o'yinida ovchi yotgan bolalarni (sherlarni) kuldirishga harakat qiladi, bolalar esa unga e'tibor bermasligi kerak. Qaysi bola kulib yuborsa, ovchiga qo'shilib, yana bir ovchi bo'lib, bolalarni chalg'itishni va kuldirishni davom etadi. O'yinlarning keyingi funksiyasi: havo oqimini hosil bo'lishini o'rganishdir. Bu esa *Kapalak* o'yinida amalga oshadi. Bolalar rangli qog'ozlardan yasalgan kapalaklarni puflab, uchurishga harakat qiladilar. *Oqsoq turna* qadimiy milliy o'yinlarga kiritiladi. Mazkur o'yin orqali bolalar muvozanatni saqlashni o'rganadi. Ingliz xalqida *Octopus* va *Fox's den* o'yinlari chaqqonlikni rivojlantirishga mo'ljallangan bo'lsa-da, o'zbek xalqida *Chigirtka* o'yini mazkur funksiyani bajaradi.

Ko'rinadiki, o'zbek va ingliz xalqlarining o'yinlari o'xshash jihatlari va o'yinlarning funksiyalari bilan birlashadi.

"Oila, oilaviy munosabatlar va maishiy hayot" tematik guruhiga birlashgan o'yinlar o'z funksiyasi bilan keskin farqlanadi. Ingliz o'yinlari hayot qonun-qoidalarini o'rgatishga qaratilganligi, o'zbek xalq o'yinlari esa ko'proq milliy urf-odatlarni o'rgatishga mo'ljallangan. Bu esa o'zbekchilikda mehmon kutish, to'y-marosimlar urf-odatlarimizning ajralmas qismiligidir namoyon etadi. Jumladan, *Kelin-kuyov/Kelinchak, Kelin salom, Quda-anda, Dasturxon, Choyxona, Choy-choy, Xola-xola/Mehmon-mehmon* o'yinlari kattalar hayotiga taqlid qilib, bolani kichik yoshidan boshlab, milliy urf-odatlar va an'analarimizni sevishtirishni o'rgatadi.

Mehnat, kasb va ijtimoiy munosabatlar tematik tasnifda bitta guruhga jamlandi, chunki o'yinlarda ijtimoiy munosabatlar bevosita kasb va mehnat bilan bog'lanib keladi. Masalan, *Bozor-bozor, Do'konchi, Muallim-o'quvchi, Postman's knock, The queen's servants* va boshqa o'yinlarda ijtimoiy rollar taqsimlanadi. Mazkur guruhdagi barcha o'yinlar sabnashitirilishi bilan tavsiflanadi.

Shu bilan birga mazkur guruhda o'zbek o'yinlari ovchi, podachi, hunarmand, dehqon, savdogar, o'qituvchi, tikuvchi, quruvchi, bog'bon, duradgor, oshpaz, nonvoy, sartarosh, shifokor kabi kasblarga

bag'ishlangan bo'lsa, ingliz o'yinlarida fermer, politsiyachi, qaroqchi, nonvoy, sutchi, do'konchi, shifokor, askar, dengizchi, baliqchi, quruvchi, taqachi, podachi, pochta, xizmatkor kasb egalari uchraydi. O'yinlarning vujudga kelishiga geografik va tabiiy muhit ham dahldor. Buyuk Britaniya mamlakati suv havzalariga yaqin joylashganligi o'yinlarda ham aks etib, dengizchi, baliqchi, qaroqchi kasblarga bag'ishlangan o'yinlarni kuzatish mumkin. Bu kasblar esa o'zbek xalq o'yinlarida namoyon bo'lmadi.

M.Matmusayeva o'yinlarning davrga qarab o'zgarishi, yangi o'yinlar paydo bo'lishi haqida fikr yuritgan. Masalan, 80-yillarda *Pochtachi*, *Gazetchi* rolli-syujetli o'yinlar mashhur bo'lganligi, hozirgi kunda esa texnologiyalar va internet ribojlanishi bilan mazkur o'yinlar yo'qolib ketganligini ta'kidlaydi. Mazkur olim *Chegarachi*, *Urush-urush* o'yinlari bugungi kunda keng uchramaganligini ham qayd etadi[7].

“Harakat” mavzusi ostida birlashgan o'yinlarni harakat turiga ko'ra yanada kichik guruhlarga bo'lish mumkin: yugurish va quvlash harakati asosida tashkillangan guruh, yashirish va topish harakati asosida tashkillangan o'yinlar, sakrash harakati asosida tashkillangan o'yinlar, aylantirish harakatiga asoslangan o'yinlar, tepish harakatiga asoslangan


o'yinlar, otish va uzatish harakatiga asoslangan o'yinlar, terish harakatiga asoslangan o'yinlar, tortish harakatiga asoslangan o'yinlar, ko'tarish harakatiga asoslangan o'yinlar.

Raqobat o'zbek o'yinlari jamoaviy tusga ega bo'lib, g'alaba jamoaning birgalikdagi harakati natijasi sifatida izohlanadi. Bu esa “Arqon tortish”, “Oq terakmi, ko'k terak” o'yinlarida aks etadi. Ingliz xalq o'yinlarida ham raqobat markaziy komponentlardan biri hisoblanadi va “Red Rover”, “Hopscotch”, “Tug of war” o'yinlarida namoyon bo'ladi. Shi bois ikki xalq o'yinlarida ham “raqobat – harakat – g'alaba” kognitiv modeli shakllanadi.

Bugungi kunda mazkur o'yinlarning aksariyati yo'qolib ketayotganligini kuzatish mumkin. Biroq mazkur tematik guruhni shakllantirish maqsadi bugungi kun o'zbek va ingliz o'yinlarini namoyon etishda emas, balki o'zbek va ingliz xalqlari o'yinlarini qiyosiy-chog'ishtirma aspektida o'rganish, o'yin nomlarini mavzularga asosan saralash hamda qaysi mavzuga ko'ra faollashganligini ko'rsatish.

Shu bois o'zbek va ingliz bolalar xalq o'yinlarining quyidagi diagrammada nisbati keltiriladi.

1-Rasm



O'zbek va ingliz bolalar xalq o'yinlarining tematik tasnifi

Mazkur diagrammadan ko'rinadiki, tematik tasnifning “makon va sayohat” hamda “afsonaviy mavjudotlar” guruhlari o'zbek madaniyatida lakunar holat hisoblanadi. Ya'ni, o'zbek madaniyatida mazkur guruhlarga taalluqli o'yinlar kuzatilmadi. “Harakat” mavzusi ostida o'zbek o'yinlarining nisbati yuqoriligi ko'rinadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bolalar xalq o'yinlari har bir xalqning milliy-madaniy tajribasi, dunyoqarashi, qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlarini o'zida mujassam etgan muhim folklor janrlaridan biridir. Ularni tematik jihatdan tasniflash orqali bolalar o'yinlarining mazmun-mohiyati,

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Всеволодский-Герингросс В.Н. Игры народов СССР. – М., Л., 1933.
2. Ключева М.А. Народные подвижные детские игры: опыт типологии: Автореф. дисс... канд. искусствоведения. – Санкт-Петербург, 2008. – 28с.
3. Мельников М.Н. Русский игровой фольклор. – М.: Просвещение, 1987. – С.104-149.
4. Шагалова Г.Р. Опыт системного анализа игровой культуры этноса (на примере башкирских народных игр): Автореф... канд. исторических наук. – Уфа, 2000. – 28 с.
5. Eshkobilova F. Analysis and linguistic-cultural classification of names of children's games in English and Uzbek languages // European International Journal of Philological Sciences, 2023. – Vol.03. – P.19-23.
6. Khusanova G. Characteristics and Classification of Games and Their Names // American Journal of Philology Sciences, 2025. – Vol.5. – №9. – P.130-133.
7. Matmusayeva M. O'zbek bolalar o'yin nomlarining lingvomadaniy xususiyatlari: Filol.fanl.b.fals.dokt.(PhD)...diss. – B.70-78.

funksional xususiyatlari hamda ular aks etgan milliy konseptlarni aniqlash mumkin. O'zbek va ingliz bolalar xalq o'yinlarini qiyosiy-chog'ishtirma o'rganish shuni ko'rsatadiki, har bir xalqning o'yinlarida uning milliy-madaniy xususiyatlari yaqqol namoyon bo'ladi. O'zbek xalq o'yinlarida jamoaviylik, oilaviy munosabatlar, mehmondo'stlik, milliy urf-odat, chorvachilik va dehqonchilik bilan bog'liq tasavvurlar ko'proq aks etsa, ingliz xalq o'yinlarida individual faollik, iyerarxiya munosabatlari, qoidalarga rioya qilish kuzatiladi. O'yinlarning tematik tarkibi ular mansub bo'lgan xalqning ijtimoiy-madaniy muhiti bilan bevosita bog'liq.

8. Mengboyev A. Lingvocultural analysis of Games names in English language // Czeck Journal of Multidisciplinary Innovations, 2024. – P.45-47.
9. Safarova N.O. Boshlang'ich sinfda bolalar o'yinlari tasnifi // Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 2024. – Vol.2. – Issue 11. – B.239-243.
10. Temirova D. Историко-генетические корни игры «Белый тополь, зелёный тополь» https://uniwork.buxdu.uz/resurs/13096_1_0FECA87E0465D455BCF7E5BA39B83A7A8F030123.pdf
11. Yuldoshev S. Xalq o'yinlarining xorijiy tadqiqotlarda o'rganilishi // Жамият ва инновациялар, 2026. – Vol. 7.– №3. – B.453-459; bu haqida qarang: Caillois R. Man, Play and Games. – University of Illinois Press, 2001.
12. <https://nsportal.ru/detskiy-sad/raznoe/2024/01/10/klassifikatsiya-russkih-narodnyh-podvizhnyh-igr>